

**GINKGO BILOBA O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA
AHAMIYATI**

Rahmatova Mubina Jo'rabek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya
yo'nalishi 101-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Usgbu tezisizda ginkgo biloba o'simligining botanik tavsifi, tarqalishi tibbiyotdagi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Tibbiyot rivojlangan sari boshqa o'simliklar kabi ginkgo bilobani ham dorivorlik xususiyatlari o'rganilmoqda. Shuning uchun ham tibbiyotda katta ahamiyatga ega o'simlik hisoblanadi.*

Аннотация: *В диссертации дана информация о ботаническом описании растения гинкго билоба, его распространении и значении в медицине и сельском хозяйстве. По мере развития медицины изучаются лечебные свойства гинкго билоба, как и других растений. Вот почему это растение имеет большое значение в медицине.*

Abstract: *The thesis of the University of Uzbekistan provides information about the botanical description of the ginkgo biloba plant, its distribution, and its importance in medicine and agriculture. As medicine develops, the medicinal properties of ginkgo biloba, like other plants, are being studied. That is why it is a plant of great importance in medicine.*

Kalit so'zlar: *Ginkgo biloba, kumushrang meva, ginkgopyta, preparat, perm mezazoy, papparotnik, tibbiyot, alsgeymer, ekstraktlar.*

Ключевые слова: *Гинкго билоба, серебряный плод, гинкгофита, лекарственное средство, пермь мезазой, паппаротник, лекарство, болезнь Альцгеймера, экстракты.*

Keywords: *Ginkgo biloba, silver fruit, ginkgophyta, drug, perm mesazoy, papparotnik, medicine, Alzheimer's, extracts.*

Ginkgo biloba — dunyoda kamyob va noyob o'simliklardan biri bo'lib, u

ko'plab jihatlari bilan olimlarning, tabiblarning va tabiat ixlosmandlarining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu o'simlik qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, "tirik skameya" (ya'ni yo'q bo'lib ketgan o'simliklar guruhining tirik vakili) sifatida tanilgan. Ginkgo biloba o'zining o'ziga xos morfologik xususiyatlari, uzoq umr ko'rish qobiliyati va dorivor ahamiyati bilan mashhurdir. Mevasi va urug'i yeyiladi. Janubiy Xitoyning ba'zi joylaridagina yovvoyi holda o'sadi. Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi. Tabiiy sharoitda ginkgo faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-mu Shan tog'ida saqlanib qolgan. Ginkgoning ikkinchi turi Xitoydan topilgan. Ginkgo so'zi yapon tilidan olinga. bo'lib, "kumushrang o'rik" yoki "kumushrang meva" degani. Bu o'simlik Yaponiya, Xitoy, Koreada muqaddas daraxt sifatida ziyoratgoh joylarda, xiyobonlarda o'stiriladi. 1730-yillarda u G'arbiy Yevropaga, 1780-yillarda esa Shimoliy Amerikaga keltirilgan. K. Linney bu o'simlikka ginkgo biloba deb 1771-yilda ilmiy nom bergan. Bu o'simlik juda ko'p davlatlarda shu jumladan O'zbekistonda ham 1920-yildan boshlab manzarali daraxt sifatida o'stiriladi. Eng dastlab 1870-yilda Samarqandga olib kelingan. O'simlik Yaponiyada madaniylashtirilgan.

Ginkgo biloba yagona tirik vakil hisoblanadi va u Ginkgophyta bo'limiga mansub. Bu o'simlik daraxt ko'rinishida bo'lib, 20 metrdan 35 metrgacha bo'y o'sadi. Ba'zi hollarda 40 metr va undan yuqori balandlikka erishgan namunalar ham uchraydi. Ginkgo biloba daraxtining eng ajralib turuvchi belgilaridan biri uning yelpig'ichsimon barglaridir. Barglar odatda ikkiga bo'lingan bo'ladi, shuning uchun u lotin tilida "biloba" (ikki bo'lakli) deb ataladi. Daraxtning po'sti kulrang va chuqurchalangan. O'simlik ikki jinsli bo'lib, erkak va urg'ochi daraxtlar alohida bo'ladi. Erkak daraxtlar changli konuslar hosil qiladi, urg'ochilar esa urug'lar ishlab chiqaradi. Urug'lari yong'oqsimon, go'shtli tashqi qavatga ega bo'lib, pishganida yoqimsiz hid tarqatadi. Shu bilan birga, urug'i tarkibida foydali moddalar mavjud. Ginkgo biloba juda uzoq umr ko'radigan daraxt bo'lib, ming yildan ortiq yashovchi daraxtlar ham qayd etilgan. U sekin o'sadi, biroq sharoitga chidamli va bardoshli hisoblanadi.

Tabiiy holda Ginkgo biloba faqat Xitoyning ayrim tog'li hududlarida uchraydi. U yerda bu o'simlik ko'plab asrlar davomida diniy va madaniy ahamiyatga ega daraxt sifatida saqlanib qolgan. Biroq zamonaviy davrda u butun dunyoda manzarali daraxt

sifatida keng tarqalgan. Hozirgi kunda Ginkgo biloba Koreya, Yaponiya, AQSh, Yevropa va O'rta Osiyo davlatlarida bog' va xiyobonlarda yetishtiriladi. Ushbu daraxt shaharlarda ekologik barqarorlikni saqlash uchun keng ekiladi, chunki u atmosferaning ifloslanishiga va shahar sharoitlariga chidamli.

Ginkgo biloba eng mashhur dorivor o'simliklardan biri hisoblanadi. Uning barglaridan tayyorlangan ekstraktlar tibbiyotda ko'plab kasalliklarni davolash va oldini olishda qo'llaniladi. Xususan: Miya qon aylanishini yaxshilaydi. Xotirani kuchaytiradi, e'tibor va fikrlash faoliyatini oshiradi. Altsgeymer kasalligi va boshqa nevrologik buzilishlarning rivojlanishini sekinlashtiradi. Antioksidant xususiyatlarga ega bo'lib, hujayralarni qarishdan himoya qiladi. Qon bosimini me'yorda ushlashga yordam beradi. Ginkgo preparatlari ko'plab mamlakatlarda parhez qo'shimchasi sifatida keng qo'llaniladi.

Ginkgo biloba Sharq mamlakatlarida, xususan Xitoy va Yaponiyada qadimdan muqaddas daraxt sifatida e'zozlangan. Buddist monastirlari atrofida ko'p uchraydi. Atom bombasi tashlangan Xirosimada portlashdan omon qolgan birinchi o'simlik aynan Ginkgo daraxti bo'lgani tarixiy ahamiyatga ega holat sifatida eslanad

Ginkgo biloba shaharlarda ko'kalamzorlashtirish uchun juda mos daraxt hisoblanadi. Atmosferadagi zararli gazlarni o'zlashtiradi. Changni ushlab turadi. Kuzda barglari oltinrang tusga kirib, manzara uchun joziba beradi. Bundan tashqari, u ko'pgina zararli hasharotlar va kasalliklarga chidamli bo'lib, parvarishi oson.

Ginkgo biloba haqida qiziqarli malumotlar:

- O'rtacha umr ko'rishi 2500 yilga yetadi.
- Ginkgo biloba – Perm viloyatining ramzi.
- Daraxt kuchli shamollarga , harorat o'zgarishiga va qor ko'chkilariga toqat qiladi.
- Ular mezazoy davrida eng ko'p tarqalgan
- Ginkgo - paporotnikning avlodi.
- Ko'pincha manzarali o'simlik sifatida ekiladi.
- Ginkgo biloba dinosavrlar davridan beri yashab kelmoqda .
- Zararkunandalar va bakteriyalarga chidamli.

- Daraxt Xirosoma va Nagasakidagi yadroviy bombalar jangida omon qoladi ,
bu

nurlanishdan keyin unib chiqqan yagona o'simlik.

- Ananaviy tibbiyotda 4000 yildan buyon foydalaniladi.

Ginkgo biloba — biologik, tibbiy va madaniy jihatdan bebaho o'simliklardan biridir. Uning qadimiy kelib chiqishi, noyob tuzilishi va shifobaxsh xususiyatlari uni tabiat mo'jizasi sifatida e'tirof etishga asos bo'ladi. Shuningdek, u atrof-muhitni muhofaza qilishda ham muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda Ginkgo biloba nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki inson salomatligi va ekologik muvozanatni saqlashda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent- 2000
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ginkgo>
3. O'.Pratov va boshqalar BOTANIKA (Morfologiya , Anatomiya , Sistematika, Geobotanika) “TA'LIM NASHRIYOTI ” Toshkent -2010 (291 bet)
4. O'.Pratov, Q. Jumayev. “YUKSAK O'SIMLIKLAR SISTEMATIKASI” Toshkent -2003. (144 bet)